



ISSN 3030-3710 (P)

ISSN 3030-3095 (E)

**BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTTI ILMIY
AXBOROTNOMASI**
ilmiy-amaliy jurnal

**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY
AND FOREIGN LANGUAGES**
scientific and practical journal

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ
И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**
научно-практический журнал

№ 2(6) 2024

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti

Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
<http://buxpxti.uz/>, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.

+998905124244 Ostanov Sh.Sh.

<https://t.me/OstanovSH>



"Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal

BOSH MUHARRIR:

Baratov Sharif Ramazanovich

psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rnbosari:

Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:

Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)

Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M.- psixologiya fanlari doktori, professor

Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor

Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Akramova F.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor

Ayrapetova A.G.- psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ruxiyeva X.A. - psixologiya fanlari nomzodi, professor

Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor

Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Hamroyev A.R. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor

Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor

Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.

Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasini mudiri



"Scientific reports of Bukhara institute of psychology and foreign languages"
scientific-theoretical journal

EDITOR-IN-CHIEF:

Baratov Sharif Ramazanovich

doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences

Deputy editor-in-chief:

Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:

Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)

Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)

Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)

Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)

Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

**SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES**

Umarov B.M. - doctor of psychology, professor

Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor

Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor

Akramova F.A. - doctor of psychology (DSc), professor

Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor

Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor

Ayrapetova A.G. - doctor of psychology (DSc), associate professor

Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor

Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor

Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor

Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor

Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor

Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor

Rukhiyeva K.A. - candidate of psychology, professor

Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor

Ostanov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

Rustamov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD)

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor

Hamroyev A.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor

Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor

Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor

Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor

Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor

Toirova G.I. - doctor of philological sciences (DSc), professor

Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)

Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)

EDITORS:

Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Kurbanov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL



172	Matkarimova Dilnavoz G'ayratovna, Ismatova Dilafruz Tuymuratovna Kichik mакtab yoshidagi bolalarni pedagogik psixologik qo`llab-quvvatlashning zamonaviy imkoniyatlari
176	Tursunova Moxinur Bahodir qizi, Ismatova Dilafruz Tuymuratovna Boshlang`ich ta`limda psixolog kasbiy faoliyatining pedagogik-psixologik aspektlari
180	Мирзаева Шахло Рузмат кизи Исследование влияния эмоционального интеллекта на учебную деятельность студентов-медиков
185	Собиров Абдулазиз Абдуразикович Расширение возможностей преподавателей по просвещению подростков в области репродуктивного и психологического здоровья
189	Babayeva Nazira Asatullayevna Tug'ruqdan keyingi depressiya
193	Назаров Фарход Аллабердиевич Воспитание народной молодежи как психологическая методическая проблема (на примере бухарского детского фольклора)
198	Beknazarova Lola Sadinovna Ijodkorlik ijodiy-innovatsion ta'lim samaradorligini takomillashtirishning manbai sifatida
204	Sayfullayeva Aziza G'ulomjonovna O'smirlar guruhida psixologik muhofaza motivatsiyasini tadqiq qilishning amaliy - metodik asoslari
208	Жўраев Кўлдошжон Исматулло ўғли Сущность и структура профессиональной компетенции
	13.00.00 – PEDAGOGIKA
211	Narzullayev Nuriddin Homit o'g'li Geografiya darslarida fanlararo bog'lanish metodikasidan foydalanish
214	Husenova Aziza Sharipovna Blum taksonomiysi orqali boshlang`ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish yo'llari
220	Садуллоева Махфузা Гайбуллоевна Система организации непрерывной педагогической практики в начальных классах
225	Бабаева Шоира Баймурадовна Творческое образование - будущее учебного процесса
229	Ashurova Marhabo Sayfulloyevna Buxoro jadidlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlarida yangi usul maktablarida o'qitish imkoniyatlari
235	Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna Boshlang`ich sinf ona tili ta'limida o'quv-biluv topshiriqlarini tashkil etish muammolari
240	Yusufzoda Shabnami Yunus Yozuvga o'rgatish jarayonida o'quv qurollaridan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish
247	Yuldasheva Mashxura Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkurini takomillashtirish texnologiyasi
	10.00.00 – FILOLOGIYA
251	Ozodova Vasila Ikrom qizi Gazeta nutqidagi frazeologik birliklarning o`ziga xos xususiyatlari
256	Shokirova Marxabo Sharifovna O'zbek va ingliz tillarida rasmiy uslubda stilistik vositalarning foydalanishdagi o'xshashlik jihatlari



Tursunova Moxinur Bahodir qizi
Osiyo Xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna
Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

BOSHLANG`ICH TA`LIMDA PSIXOLOG KASBIY FAOLIYATINING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Anotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy psixologiyada psixolog kasbiy faoliyati to`g`risida va ilmiy tadqiqotlardagi psixolog olimlarning fikr-mulohazalari ketirilgan. Bundan tashqari kasbiy faoliyat hamda kasbiy kompetentlik bugungi kundagi ahamiyati, amaliyotchi psixologlarning matematik kompetensiyalari, shaxsnинг o‘zini-o‘zi anglashi, o‘z-o‘zini hurmat qilishini belgilovchi omil sifatida tushunchalar yoritib berilgan. Shuningdek, mакtab amaliyotchi psixologlarning kasbiy kompetentligini turli psixolog olimlarning matematik hamda statistik natijalari bilan ochib berilgan.

Kalit so`zlar: anglanmagan faoliyat, anglanilgan faoliyat, anglangan faoliyat, matematik kompetensiya, kasbiy kompetentlik, kompetensiya, tashabbuskorlik, motivlashtirilgan xulq-atvor.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПСИХОЛОГА НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье представлена профессиональная деятельность психолога в современной психологии и мнения психологов в научных исследованиях. Кроме того, подчеркивается важность профессиональной деятельности и профессиональной компетентности сегодня, математической компетентности практикующих психологов, самосознания и самооценки человека. Также профессиональная компетентность практикующих школьных психологов раскрывается математическими и статистическими результатами различных психологов.

Ключевые слова: неосознанная деятельность, сознательная деятельность, сознательная деятельность, математическая компетентность, профессиональная компетентность, компетентность, инициатива, мотивированное поведение.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE PSYCHOLOGIST'S PROFESSIONAL ACTIVITY IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. In this article, the professional activity of a psychologist in modern psychology and the opinions of psychologists in scientific research are given. In addition, the importance of professional activity and professional competence today, mathematical competence of practicing psychologists, self-awareness and self-esteem of a person are highlighted. Also, the professional competence of practicing school psychologists is revealed by the mathematical and statistical results of various psychologists.

Key words: unconscious activity, conscious activity, conscious activity, mathematical competence, professional competence, competence, initiative, motivated behavior.

Kirish. Zamoniaviy psixologiya fanida psixologlar kasbiy faoliyati muammosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganar ekanmiz, ulardagи kasbiy faoliyati metodologiyasiga dahldor ayrim psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga harakat qildik. Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kasbiy faoliyatni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimini takomillashtirish, uni bugungi zamon talablari asosida o‘qitishning ilg‘or yondashuvlarini joriy etish bo‘yicha olib borilgan islohotlar natijasida mакtab amaliyotchi psixologlarning kasbiy kompetentligini matematik bilimlarni egallash orqali yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari fan-texnika taraqqiyoti, insonlarning sifatli va aniq ma‘lumotga bo‘lgan ehtiyojlarining ortishi ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud ekanligini ko‘rsatmoqda.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlili Mashhur rus pedagog-psixologi O.A.Kozireyeva o‘z ilmiy tadqiqotlarida kasbiy yuksalish bosqichlari va kasbiy kompetentlik rivojlanishini qiyoslab o‘rgangan.



Uning talqinicha, kasbiy yetuklikning 3 ta bosqichi bo‘lib, ularning har biri «anglanmagan faoliyat angilanigan faoliyat anglangan faoliyat» ko‘rinishidagi kasbiy faoliyatlikni namoyon etadi.

Demak, yuqoridagi amaliyotchi psixologlarning matematik kompetensiyalar tuzilishi keltirilgan asosiy fikrlardan kelib shiqib, kasbiy faoliyat atamasini ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minalsh uchun muayyan kishilar malakasini rivojlantirish mehnat faoliyatini oshirish va psixologlarni mutaxassis sifatida shakllanishida o‘ziga xos muhim indikator sifatida xizmat qiladi.

Nazariy manbalarning tahliliga ko‘ra amaliyotchi psixologlarning “kasbiy faollik” va “kasbiy faoliyat” bo‘yicha aniq tahlil juda kam uchraydi. Bu esa ushbu atamani zamonaviy psixologik mazmundagi muammolarni o‘rganishda dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

“Kompetentlik” tushunchasi dastlab kognitiv psixologiya sohasi vakillari tomonidan qo‘llanila boshlagan. Ushbu tushuncha shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi, o‘z-o‘zini hurmat qilishini belgilovchi omil bo‘lib hisoblanadi va shaxsning umumiyligini xususiyatlari hamda uning kasbiy faoliyatini xususiyatlaridan ko‘ra ko‘proq bog‘liqligini bildiradi.

Ijtimoiy psixologiyaga oid nazariyalarda “kompetentlik” tushunchasi aniq bir kasbga xos sifatlar, har bir shaxs erishishi lozim bo‘lgan xususiyatlari deb qaraladi. Kompetentlik bu yerda kasbiy professionalizmning bir qismi sifatida tushuniladi. Deyarli barcha lug‘atlarda “kompetentlik” va “kompetensiya” muammolari alohida bir kategoriya sifatida o‘rganiladi. Kompetentlik ta’riflari bir-biriga juda o‘xshash va bir-birini takrorlaydi, “Kompetentlik” uchun yagona talqin bo‘lmasa-da, bu konsepsiya “har qanday tashkilot yoki mutaxasisning bilimlarga egalik qilish vakolatlari (huquq va burchlari) yig‘indisi” deb talqin qilinadi. Shunday qilib, “kompetensiya” – bu “kompetentlik” so‘zidan olingan termin bo‘lib, insonning bilim, ko‘nikma va malakalarini to‘g‘ri anglay olishiga, “kompetentlik” esa semantik tomonidan birlamchi yo‘nalish bo‘lib, ularning intro (insonning ichki imkoniyatlari) jamlanmasi, tizimi, shaxsning ma’lum bir tajribalari “jamlanmasi”ni bildiradi.

Dj.Raven o‘z ilmiy tadqiqotlarida “kasbiy faoliyat” atamasiga umumiyligini holda ta’rif beradi. Uning ta’rifiga ko‘ra, kasbiy faoliyat – ma’lum bir sohadagi muayyan harakatni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan o‘ziga xos qobiliyat bo‘lib, yuqori ixtisoslashgan ko‘nikmalarini o‘z ishiga oladi. Ixtisoslashgan ko‘nikmalar deganda fikrlash usullari, shuningdek, o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishga aytildi.

Bundan tashqari Dj.Raven (kichkinasi) “oliy kasbiy faoliyat” haqida ham fikr bildiradi. Unga ko‘ra “Oliy kasbiy faoliyat” qaysi sohada namoyon bo‘lishidan qat’iy nazar, insonning yuqori darajaga ega ekanligini, tashabbuskorligi, tashkilotchiligi va o‘z maqsadlariga erishish uchun o‘z harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini baholash hamda tahlil qilishga bo‘lgan qobiliyatlarni tushuniladi.

“Oliy kasbiy faoliyat”ni barcha turlarini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin.

1. Tashabbuskorlik
2. Tashkilotshilik va boshqaruvchanlik qobiliyati
3. Hamkorlik va muloqot

Dj.Raven kasbiy faoliyatni bir nechta tarkibiy qismlari mavjudligini ta’kidlaydi. Uning tarkibiy qismlari bir-biridan nisbatan mustaqil bo‘lib, kompetensiyalarning o‘zaro almashinuvchanlik xislatlariga ega. “Kasbiy faoliyat turlari” atamasi ma’lum ma’noda “motivlashtirilgan qibiliyatlar”dan boshqa narsani anglatmaydi, ya’ni, motivlashtirilgan xulq-atvorning kognitiv, ta’sirchan va irodaviy tarkibiy qismlari “tashabbus” kabi atamaga mos keladi.

Shu bilan birga, “samaradorlik” yoki “kasbiy faoliyatning tarkibiy qismlari” atamasi o‘tgan tajribadan foydalanish yoki o‘z maqsadlariga erishishda boshqalar bilan hamkorlik qilish tendensiyasi kabi shaxsiy kompetentlikni shakllantiradigan o‘ziga xos xulq-atvor tendensiyalariga murojaat qilish uchun ishlatalishi mumkin. Yuqoridagilardan tashqari Dj.Raven o‘zining “Pedagogik testlashtirish” asarida kompetentlikka yana qo‘sishma sifatlarni - ko‘nikma va tajribani keltirib o‘tadi.

N.B.Moskvinaning fikricha “kasbiy faoliyat” asosiy xarakterga ega bo‘lib, uni mazmuni, inson bilishi va amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan yangi kashfiyotlarni o‘zlashtirish bilan bog‘laydi.

N.B.Moskvina o‘z tadqiqotlarida “kasbiy faoliyat”ni uch jihatini keltirib o‘tadi:

- semantik, shu jumladan, tushunishning adekvatligi, ijtimoiy munosabatlarni tushunishni madaniy shakllarini baholay olish;

- amaliy - turli ko‘rinishdagi sotsial munosabatlarni adekvat baholay olish, maqsad, vazifa, normalarini malum bir sharoitda kerakli darajada shakllantirish va ijobiy amalgalashish.

I.A.Zimnyaya “Kompetentlik”ni 3 guruhini keltirib o‘tadi:

- o‘z-o‘ziga shaxs sifatida va hayot faoliyatining subyekti sifatida qarashligi;
- insonning boshqa kishilar bilan o‘zaro ta’sir munosabati bilan bog‘liqligi;



- inson faoliyati bilan bog‘liq kompetensiyalar uning barcha turlari va shakllarida namoyon bo‘lishi. Bizning fikrimizcha, amaliyotchi-psixologlarning kasbiy tayyorgarligini tashkil etish jarayonida I.A.Zimnaya asarlari juda muhim sanaladi.

Kasbiy faoliyatni keng ma’noda qobiliyat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, ko‘nikma, malaka va boshqalar. Kompetentli shaxs - yetarli malakaga, bilim va imkoniyatlarga ega shaxs hisoblanadi.

T.V.Zamorskaya talqiniga ko‘ra, “amaliyotchi psixologlarning kasbiy kompetensiyasi” – samarali faoliyatga asos bo‘luchchi murakkab psixologik ta’lim, hamda bilim, ko‘nikma malakalar hamda shaxsiy fazilatlar tizimini o‘z ishiga oladigan sifatlar jamlanmasidir.

So‘nggi yillarda kasbiy faoliyat muammosi yangicha talqinlarda namoyon bo‘lmoqda. Ko‘pgina olimlar nafaqat faoliyat balki professional kasbiy faoliyat haqida mutaxassisning kasbiy mehnat talablariga muvofiqligi ko‘rsatkichi sifatida fikr yuritishgan.

Shaxsning professional kasbiy faoliyat muammosi bo‘yicha K.K.Platonova, N.S.Ribakova ilmiy-nazariy izlanishlarida amaliyotchi psixologlarning faoliyati nuqtai nazaridan o‘z-o‘zini anglashi, kasbiy foydalik darajasi, o‘z kasbiga moslik darajasi, kasbiy malaka kabi asosiy psixologik kategoriyalarning mazmunini anglashga yordam beradi. Ushbu yo‘nalish doirasida professional yondashuv usullari ham takomillashtirildi.

Yana bir yo‘nalish vakillari B.G.Ananyev, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteynlarning asarlarida kasbiy faoliyatning turli ko‘rinishlarida individual psixologik xususiyatlar va shaxsiy sifatlarini bevosita o‘rganilgan.

V.A.Yadov sotsiologiyada faoliyat kasbiy mahoratning atributi sifatida faoliyat yuritishi va o‘z ishi uning mohiyati, murakkab aloqalari, undagi munosabatlar, ko‘zlangan maqsadlarga erishishning mumkin bo‘lgan vositalari va usullari to‘g‘risida eng puxta bilim sifatida tavsiflanganligini ta’kidlaydi.

L.A.Petrovskaya birgalikdagi va boshqaruv faoliyatida, shuningdek, turli xil muloqotlarni amalgalashirishda muhim ahamiyatga ega kommunikatsiya kasbiy faoliyatning maxsus konsepsiyasini ishlab shiqdi. M.I.Lukyanova kasbiy faoliyatning tarkibida o‘qituvchining psixologik-pedagogik kompetentligi tushunchasini belgilaydi, ya’ni pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarlik darajasini va ta’lim jarayonida talabalar bilan samarali hamkorlikni hisobga olgan holda insonning muayyan fazilatlarini (xususiyatlarini) majmuuni anglatadi.

Psixologning kasbiy faoliyati haqidagi dastlabki fikrlar XX asrning 90-yillarida to‘g‘ri keladi. Inson evolyutsiyasining har bir bosqichida psixologlarning jamiyat uchun qiladigan vazifalarini aniq belgilab beradigan ehtiyoj paydo bo‘idi. Arastu o‘z sohasida kasb egasi bo‘lish uchun zarur bo‘lgan bilimlarning o‘qituvchi shaxsini rivojlantirishdagi roliga katta ahamiyat byergan. Aristotelning fikricha, yetuk mutaxassisni belgisi bu - bolalarni o‘qitishga bo‘lgan qobiliyatning mavjudligidadir.

A.K.Markova “Professional kasbiy faoliyatni” yanada chuqurroq o‘rgangan holda quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi:

- kasbiy ko‘nikma;
- kasbiy psixologik o‘rni, kasb bo‘yicha talab qilinadigan ko‘nikmalar;
- kasbiy samaradorlikka yo‘naltirilgan individual sifatlar .

Umuman, bolaning shaxsiyatiga ta’sir o‘tkaza oladigan o‘qituvchi shaxsiyatining ichki qiymati va o‘ziga xosligini rivojlantirish, bu o‘qituvchining kompetentligini tadqiq qilish muammosini ko‘rib chiqish uchun asos yaratadi, uning insonparvar va ijodkor sifatida shaxsiy fazilatlarini belgilab beradi.

Muhokama va natijalar

Tadqiqotimiz davomida amaliyotchi psixologlarning kasbiy faoliyatini o‘rganish maqsadida maxsus ishlab chiqilgan “Matematik kompetentlik darajasini aniqlash so‘rovnomasi” orqali olingan natijalarni sharhiga to‘xtalamiz. Ushbu so‘rovnomada matematik kompetentlikka dahldor bo‘lgan 5 ta (“Sotsial-psixologik faoliyat”, “Kognitiv faoliyat”, “Matematik faoliyat”, “Mantiqiy faoliyat”, “Kreativ faoliyat”) kabi omillar orqali olingan statistik ma’lumotlar tahlil qilindi.

Ushbu tahlillar maktab tizimida faoliyat olib borayotgan amaliyotchi psixologlar o‘rganildi. Bu esa psixodiagnostik, psixokorreksion hamda psixokonsultativ ishlari samaradorligini yuqori darajada bo‘lishini ko‘rsatadi. Yuqorida tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, mehnat amaliyotiga ega bo‘lgan amaliyotchi psixologlarda matematik usullar, matematik statistika, psixologik ma’lumotlarni interpretatsiya qilishda yangi texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan munosabat ularda induktiv, deduktiv tafakkur operatsiyalaridan sanalgan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini mavjudligidan dalolat beradi.

Xulosa. Kasbiy kompetentlikka nisbatan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo‘lib, bu qarashlar turli manbalarda Sharq va G‘arb mutafakkirlari ijodida, ilg‘or psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida asrlar davomida sayqal topib kelgan, ammo amaliyotchi psixologlar kasbiy



kompetentligini rivojlanishida matematik usullardan foydalanishning amaliy jihatdan tadqiq etish muammosi psixologiyada o'zining muayyan nazariy – metodologik bazasiga ega bo'lsada, ushu muammoga dahldor tadqiqotlar ko'lami hali o'zining mukammal yechimlariga ega bo'lmagan.

Omillar	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	T	Ishonch darajasi
Sotsial psixologik faoliyat	30,7	9,7	4,457	005
	36,5	7,4		
Kognitiv faoliyat	18,6	7,8	1,968	007
	22,4	8,8		
Matematik faoliyat	18,6	9,9	4,965	004
	10,6	10,4		
Mantiqiy faoliyat	10,0	5,9	1,741	003
	17,1	5,4		
Kreativ faoliyat	22,1	6,5	3,963	000
	13,5	7,9		
Omillar	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	T	Ishonch darajasi
Sotsial psixologik faoliyat	30,7	9,7	4,457	005
	36,5	7,4		
Kognitiv faoliyat	18,6	7,8	1,968	007
	22,4	8,8		
Matematik faoliyat	18,6	9,9	4,965	004
	10,6	10,4		
Mantiqiy faoliyat	10,0	5,9	1,741	003
	17,1	5,4		
Kreativ faoliyat	22,1	6,5	3,963	000
	13,5	7,9		

Amaliyotchi psixologlar kasbiy kompetentligini rivojlanishida matematik usullardan foydalanishning ahamiyatini amaliy jihatdan o'rganish, ijtimoiy psixologik muammo sifatida o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy manbalarni tadqiq etish, amaliyotchi psixologlar kasbiy kompetentligiga xizmat qiluvchi omillar haqida batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi. Bu imkoniyat esa amaliyotchi psixologlar shaxsini, uning kasbiy kompetentligini yanada chuqurroq tadqiq qilish uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Abramova G.S Практическая психология – Екатеренбург, 1998. – 365с.
- 2 Афанасев В.Г Проектирование педагогических технологий // Высшее образование в России. – 2001. № 4. – С. 147-150.
- 3 Бабанский Ю.К Избранные педагогические труды.–М.:Педагогика,2008.– 500с.
- 4.Ахмедова З.Ж. “Педагогико-психологические особенности адаптации младших школьников к учебной деятельности” Вестник интегративной психологии 2023 Выпуск 29
- 5 A.Z.Djamilovna Study of the formation of crime motivation in adolescents as a problem of psychological research, I.H.Bakhtiyorovna - ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2022
- 6.Ismatova D.T. Oilaviy psixologik xizmatda shaxslararo munosabatlarni empirik tahlili Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил №5) 338-343 b.
- 7.Ismatova D.T.Oilaviy munosabatlarda emotsional zo`riqishlarni korreksiyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari —Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 596-101b